



**Xalqaro Nordik Universiteti Iqtisodiyot va pedagogika
fakulteti**

**Psixologiya va maktabgacha ta’lim kafedrasи
1-MMP-23 guruh magistranti
Komilov Kamronbek Kamoljon o’g’lining
Oila psixologiyasi fanidan
Hisobot ishi**

**Mavzu: «Nikohga ma’naviy tayyorlik» testi va Oilaviy shaxslararo
munosabatlar barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim
omillar va ularning baholanishi**


“Nikohga ma’naviy tayyorlik” testi

Ushbu tadqiqotimizda jami 30 ta respondent qatnashdi, bulardan 19 ta erkak, 11 nafari ayollardan iborat edi. Sinaluvchilarning asosiy qismi 21-22 yoshdagi universitet talabalaridan iborat edi.

Tadqiqot Oilaviy ahvoli jihatdan 2 ta guruhga bo‘lib o‘rganildi.

1. Turmush qurmaganlar;
2. Muvaffaqiyatli oilalar;

Tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatadiki Oilaviy munosabatlarni o‘rganish maqsadida, “Nikoxga ma’naviy tayyorlik” K 50 dan kam bo‘lsa, oilaviy hayotga ma’naviy tayyorgarlilik past, 50 dan ko‘p bo‘lsa, ma’naviy tayyorgarlilik o‘rtacha bo‘ladi. Tadqiqot natijasiga ko‘ra esa;



Turmush qurmagan yigit-qizlardan bo‘yicha tahlil qilinganda esa “Nikoxga ma’naviy tayyorlik” darajasi 55%yuqorini, 35%da o‘rta, 10%da esa past ko‘rsatkichni berdi. Bundan ko‘rinib turipdiki asosiy Oilada “Nikoxga ma’naviy tayyorlik” darajasi yoshlarda yuqori 55%, ko‘rsatkichni, past ko‘rsatkich 10%ni esa tashkil etdi.

Muvaffaqiyatli oilalarda “Nikoxga ma’naviy tayyorlik” darajasi 50%yuqorini, 40%da o‘rta, 10%da esa past ko‘rsatkichni berdi. Bundan ko‘rinib turibdiki asosiy Oilada “Nikoxga ma’naviy tayyorlik” darajasi Sog‘lom oilalarda yuqori 50%ni, past 10% ko‘rsatkichni tashkil etdi. Demak oila mustahkamligida Ma’naviy tayyorlik darajasini yuqoriligi muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Tahlil: Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishda qaror toptirilayotgan ijtimoiy psixologik muxofaza ko'rsatkichlarining tadqiqot predmeti sifatida tadqiq qilinishi bilan bog'liq bo'ladi. Tadqiqot tahlil jarayoni shuni anglatadiki yoshlarning "Nikoxga ma'naviy tayyorlik" darajasi qancha yuqori bo'lsa oila mustahkamligi shuncha yuqori bo'ladi. Bizning tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki oilaga psixologik xizmat dastlab yoshlarning ma'naviy tayyorgarlik darajasini oshirish bilan bog'liq bo'ladi.

Xulosalar quyidagilar: Nikohga tayyorgarlik testining xulosasi quyidagi jihatlar bo'yicha amalga oshirildi:

Emotsional munosabatlar: Juftlikning bir-biriga bo'lgan emotсional bog'lanishlari, bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlash darajasi.

Qadr-qimmatlar va maqsadlar: Ularning hayotiy qadriyatları va kelajakdagi maqsadlari o'xshashmi? Masalan, farzandlar bilan bog'liq qarorlar, kasbiy rejalar, yashash joyi va boshqalar.

Kommunikatsiya va ziddiyatlarni hal qilish: Juftlikning ziddiyatlarni qanday hal qilishlari va bir-biri bilan qanday muloqot qilishlari. Bu hayotda duch keladigan qiyinchiliklarga qanday qarashlarini ko'rsatadi.

Jinsiy munosabatlar: Ularning jinsiy ehtiyojlari va qoniqishlari o'xshashmi? Bu ham nikohdagi muvaffaqiyatli munosabatlar uchun muhim omil.

Moliyaviy qarorlar: Moliyaviy masalalar, qarzlar, tejash va sarf-xarajatlar bo'yicha qanday kelishuvlar mavjud? Moliyaviy masalalarda kelishmovchiliklar nikohda muammolarga olib kelishi mumkin.


Oilaviy masalalar: Juftlikning oilaviy roli va kelajakdagi oilaviy masalalarga tayyorligi. Farzand tarbiyasi, qarindoshlar bilan munosabatlar va boshqa oilaviy masalalar.

Nikoh oldi; bunda asosan yosh oila quruvchilarning oilaviy munosabatlarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan individual psixologik xususiyatlari, sevgi ishq muhabbatning biologik, sotsiologik va psixologik tomonlarini tushuntirish asosida tegishli tavsiyalar berildi.

Muvaffaqiyatli oilalar ya'ni 5 yil va undan ko'p davr mobaynida bиргаликда yashab kelayotgan oilarga, oilaviy qadryatlarini yana bir bor tahlil etishligi, oilaviy munosabatlarda o'zaro xushmuomilalikni yo'lga qo'yish, nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish, oilaning barqarorligi jamiyatda muhim ahamiyat kasb etishligi bo'yicha tavsiyalar berildi.

Oilaviy shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omillar va ularning baholanishi

Ushbu tadqiqotimizda jami 30 ta respondent qatnashdi, bulardan 19 ta erkak, 11 nafari ayollardan iborat edi. Sinaluvchilarining asosiy qismi 21-22 yoshdagi universitet talabalaridan iborat edi.



No	Omillar	Rang 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12	Foiz
1.	Oilanning moddiy ta'minlanganligi	11	36,6
2.	O'zaro hurmat va ishonchning bo'lishi	2	6,6
3.	Oila a'zolarining bir-birlarini yaxshi tushunishlari	3	10
4.	Mustakil oila sifatida hayot kechirish	1	3.3
5.	Uy-joy bilan ta'minlanganlik	2	6,6
6.	Farzandlar	5	16,6
7.	Oila a'zolarining onglilik va ma'naviy axloqiy mavqeи	1	3.3
8.	Muomala odobi	1	3.3
9.	Oilada mehnat taqsimoti	2	6,6
10.	Jinsiy moslik	2	6,6
11.	Qaynota va qaynonaning oilani boshqarishga aralashushi	0	0
12.	Qaynaka, qaynuka, qaynopa va qaynsingillarning oilaviy munosabatlardagi ishtiroti	0	0

Tahlil: Sinaluvchilarning 11 nafari “Oilaning moddiy ta’minlanganligi” omilini 1 o’rinda tanladi va umumiylar sinaluvchilarning 36.6% tashkil etadi.

Sinaluvchilarning 5 nafari “Farzandlar” omilini 1-o’rinda tanladi va bu sinaluvchilarning 16.6 % ni tashkil etdi.

Eng past ko’rsatkich qayd etgan omillar bular “Mustaqil oila sifatida hayot kechirish”, Oila a’zolarining onglilik va ma’naviy ahloqiy mavqeい, ”Muomala odobi”, ushbu omillar 3.3% tashkil etgan.

Xulosalar quyidagilar: Bundan ko’rinib turibdiki Oilaviy shaxslararo munosabatlar barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim omillarning ichida “Oilaning moddiy ta’minlanganlik” omili yuqori foizlarni qayd etgan. Ya’ni hozirgi oila qurish arafasidagi erkak va ayollar shu bandni muhim dep hisoblashadi. Bunga asosan hozirgi jamiyatdagи moliyaviy munosabtlarning keskinlashuvi, ko’p oilalarning mol-mulk va moliyaviy sabablar tufayli ajrimlarga sabab bo’ayotganligini asos qilib keltirishimiz mumkun.

Bu jarayonda oilaning iqtisodiy funksiyasi bo'yicha kerakli tavsiyalar berildi. Oila a’zolarining ba’zilari tomonidan boshqalari uchun moddiy mablag’lar topishi, ya’ni voyaga yetmaganlar va qariyalarni moddiy ta’minlash bu funksiyaning asosini tashkil etadi. Oila iqtisodi, budjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik xarajatlarga, zarur buyumlarga pul ajratish, topilgan moddiy mablag’ning yetarli darajadagisini oilaning farovonligiga yo’naltirish er-xotinning tajriba va malakasiga bog’liqdir. Yuqorida keltirilgan oilaning iqtisodiy funksiyasi mazmun mohiyati, qanday to’g’ri tashkil etish boyicha bir qator tushunchalar berildi.

Eng past ko’rsatkich qayd etgan omillar bular “Mustaqil oila sifatida hayot kechirish”, Oila a’zolarining onglilik va ma’naviy ahloqiy mavqeい, ”Muomala odobi” ushbu omillarni juda kam sonli qatnashuvchilar yuqori o’rinlarga qo'yishgan, bundan ko’rinib turibdiki, hozirgi zamonaviy oilalar va oila qurish arafasida turgan yoshlar ushbu muhim omillarni chetda qoldirishmoqda. Bu omillarning muhim ekanligi, to’g’ri moliyaviy omillar muhim lekin er-xotin avvalo muomala odobiga rioya qilish kerakligi, shundagina bir-birining fikrlarini tushunishligi, xushmuomilalik bilan oilaviy jarayonlarga yondashishligi va farzandlar tarbiyasida muomala odobining muhim ekanligi to’g’risida tushuncha va tavsiyalar berildi.

